

MONETAR SIYOSATNING SAVDO BALANSIGA TA'SIRINI TADQIQOT QILISH

Davletov Sirojiddin Narimanovich

Bank-moliya akademiyasi "Iqtisodiyotni monetar tartibga solish" mutaxassisligi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda Mazkur tezisda monetar siyosatning savdo balansiga ta'sirini nazariy jihatdan asoslab berilgan. Pul massasi o'sishining sekinlashishi valyuta kursining oshishiga - milliy valyutaning boshqa valyutalarga nisbatan qadri ortib borishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, monetar siyosatning savdo balansiga ta'sirini tahlil qilish orqali mavjud muammolarni aniqlash hamda takomillashtirish yuzasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy bank pul-kredit siyosati, ikkilamchi bozor, byudjet xarajatlari, inflyatsiya, Markaziy bank pul agregatlari dinamikasi, daromadlar prognoz ko'rsatkichlari.

Mamlakatimizda 2023-yilda iqtisodiy rivojlanish qat'iy moliyaviy sharoitlar ta'sirida global inflyatsiya darajasining sekinlashuvi, aksariyat iqtisodiyotlarda faollikning pasayishi sharoitida rivojlanmoqda. Yuqori fiskal rag'batlantirishlar, investitsion faollikning ortishi, kreditlash sur'atining tezlashishi, pul o'tkazmalari hajmining o'tgan yilga nisbatan sezilarli pasayishi ham iqtisodiy sharoitlarda o'z aksini topdi.

Xususan, 2023 yilning yanvars entyabr oylarida jami 8,4 mlrd. dollarga teng pul o'tkazmalari kirib kelgan bo'lib, bu 2022 yilning mos davriga nisbatan 33,7 foizga kamroqni tashkil etdi. Biroq ushbu ko'rsatkich 2021 yilning mos davri bilan solishtirganda 45,5 foizga yuqori shakllandi

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida valyuta munosabatlarini tartibga solishning samarali tizimini yaratish va pul-kredit sohasida yuzaga keladigan turli vaziyatlarning iqtisodiyotning boshqa sohaslariga salbiy ta'sirining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy valyutadagi depozitlar bo'yicha ijobiy real foiz stavkalari aholining inflyatsion kutilmalariga nisbatan 4-5 foizlik ijobiy darajada bo'ldi. O'z navbatida, I chorakda aholida jamg'arishga bo'lgan moyillikning ortishi va milliy valyutadagi depozitlarning ko'paygani kuzatildi.

Ta'kidlash joizki, 2020 yildan boshlab respublikamizda inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tishning boshlanishi monetar siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlarning tubdan o'zgartirilishiga olib keldi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18 noyabrdagi PF-5877 – sonli "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, inflyatsion targetlash rejimiga o'tish sharoitida monetar siyosatning ustuvor yo'nalishlari qilib quyidagilar belgilandi.

Pul-kredit siyosati narx barqarorligi, iqtisodiy o'sishni oshirish va to'lov balansini yaxshilash maqsadlariga erishish uchun iqtisodiyotda kredit mavjudligini nazorat qilish va tartibga solish uchun markaziy bankning puldan foydalanishni anglatadi. Bu boradagi pul-kredit siyosati iqtisodiyotning ichki maqsadlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tashqi balansni kuzatib borishi bilan juda muhimdir.

Asosiy ishlab chiqishda keyingi yillarda makroiqtisodiy tuzatishlarni amalga oshirish hisobga olindi, ya'ni. energetika, transport, qishloq va suv xo'jaligida tarkibiy islohotlarni mantiqiy yakunlash, fiskal konsolidatsiya va 2023-yil ko'rsatkichlariga nisbatan umumiy byudjet taqchilligini kamaytirish (2023-yildagi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,5 foizdan 2024 yilda 4 foizga va 2025-yilda 3 foizga), iqtisodiyotdagi davlat ulushining qisqarishi, xususi investitsiyalar va tovarlar eksportining tez o'sishi kuzatildi.

Kelgusi yillarda pul-kredit siyosatini institutsional rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi zarur:

- Keying yildan boshlab asosiy stavkaning shartli prognozini e'lon qilish va uni bozor ishtirokchilari bilan muhokama qilish masalasi ko'rib chiqish;
- turli muddatlarga ega bo'lgan pul narxlari asosida daromadlilik egri chizig'ini shakllantirish;
- bir kecha-kunduzda foiz stavkasi bo'yicha operatsiyalari joriy etish hamda ular asosida daromadlilik egri chizig'i shakllantirish.
- inflyatsiya kutilmalari, iste'molchi va ishbilarmonlikni o'rganish usullari tahlil qilish va ularni takomillash;
- maqsadli auditoriyaning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan aloqa vositalari joriy etish zarur.

1-jadval


Monetar siyosati samaradorligini sifat jihatidan baholash shkalasi

monetar siyosatining samaradorlik darajalari	monetar siyosatining samaradorligi mezonlari, %
yuqori	$75 < E \leq 100$
yaxshi	$50 < E \leq 75$
qoniqarli	$25 < E \leq 50$
past	$0 < E \leq 25$

Rekursiv yondashuv, o'zgaruvchilarning har qanday tartiblanishi bilan, bu bir vaqtning o'zida ushlay olmasligi sababli, u monetar siyosatining noto'g'ri zarbalarini keltirib chiqaradi, bu esa o'zgaruvchilarning ishonchsiz dinamik javoblariga olib keladi. Ushbu bo'limda taxminiy natijalar keltirilgan. Birinchidan, men asosiy modelning natijalarini xabar qilaman, so'ngra men pul talabi funksiyasi bilan aniqlangan pulni modelga kiritgan kengaytirilgan model natijalarini taqdim etaman.

2022-2023-yillarda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 10,5 % ni, sanoat ishlab chiqarish hajmi 12,4 % ni, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmi 8,7 % ni, kapital qurilish 12,5 % ni, chakana savdo aylanmasi hajmi 12,7 % ni, xizmat ko'rsatish hajmi esa 17,1 % ga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 72 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi.

Xususan, 2022-2023-yillarda YaIM o'sishi 11% ni, sanoat ishlab chiqarish hajmi 13,5% ni, qishloq xo'jaligida 3,6% ni tashkil etgan bo'lsada hozirgi kungacha ham bu ko'rsatkichdan past bo'lmagan tarzda o'sish amalga oshirilmoqda.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida YaIM, Sanoat ishlab chiqarish va Qishloq xo‘jaligini o‘shir sur‘ati (2017-2023-yillar kesimida)

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklariga limitlashtirilgan hajmda markazlashgan kreditlar bermoqda. Ushbu kredit resurslari uchun o‘rnatilgan foiz stavkalari orqali, Markaziy bank tijorat banklarining foiz stavkalariga ta’sir qilishga harakat qilmoqda. Yirik tijorat banklari kredit resurslarining sezilarli qismini Markaziy bank resurslari hisobidan tashkil topishi qayta moliyalashtirish siyosatini kredit emissiyasi hajmiga kuchli ta’sir qilishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, tijorat banklarining kreditlarini foiz stavkalariga nisbatan cheklanishning joriy qilinishi Markaziy bankning kredit resurslari bozoriga ta’sirini keskin oshirdi. Shu bilan birga, Respublika Markaziy banki qayta moliyalashtirish siyosatidan kreditlarni xalq xo‘jalik tarmoqlari bo‘yicha tanlanma taqsimlash vositasi sifatida ham foydalandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi. <https://kun.uz/uz/99444746>.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent sh., 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli. <https://lex.uz/docs/3564970>.
3. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832 sonli. <https://lex.uz/docs/3806053>.
4. G‘ozibekov D.G‘., Nosirov E.I. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: risola. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 92 b.
5. Azizov A.S. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviy-iqtisodiy va mamlakat xatarlarini kamaytirish / Iqt. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – T., 2021.
6. Bekmurodov A.SH., G‘afurov U.V., Tuxliyev B.K. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2008. – 120 b.